



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 03 | pp. 356-365 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ONLAYIN PLATFORMALARNING O'RNI.



Raxmonova Aziza Tolibovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
tayanch doktoranti. Samarqand, O'zbekiston.

Annotatsiya: Hozirgi kunda jadal rivojlanib borayotgan raqamlashtirish jarayonlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida ayol tadbirkorlar sonining o'sishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish, mqsodan ta'lim olish tizimini yaratish, tajriba almashish va natijada ayollarimizda o'z shaxsiy biznesini ochish uchun qulay shart sharoitlarni yaratishdan iborat. Maqolada "Tadbirkor ayol" xalqaro ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi mahsuloti bo'lgan "Anor" onlayin platformasining imkoniyatlari tahlil qilingan. Loyihaning maqsad va vazifalari, dolzarbligi, statusi hamda erishilgan natijalar mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ayol tadbirkorligi, raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, biznes, onlayin platforma, gender farqi, internet.

Abstract: Currently, the digitalization processes that are rapidly developing have an impact on all sectors of the economy. The purpose of this article is to study the factors affecting the growth of the number of female entrepreneurs in the conditions of the digital economy, to create a system of online education, to share experience and, as a result, to create favorable conditions for our women to grow their own business. The article analyzes the possibilities of the "Pomegranate" online platform, a product of the International Association of "Business Woman". The goals and objectives of the project, relevance, status and the essence of the achieved results are disclosed.

Key words: Female entrepreneurship, digital economy, digitization, business, online platform, gender difference, internet.

Аннотация

В настоящее время стремительно развивающиеся процессы цифровизации оказывают влияние на все отрасли экономики. Цель данной статьи – изучить факторы, влияющие на рост количества женщин-предпринимателей в условиях цифровой экономики, создать систему онлайн-обучения, поделиться опытом и, как следствие, создать благоприятные условия для нашей женщины для развития собственного бизнеса. В статье анализируются возможности онлайн-платформы «Гранат» – продукта Международной ассоциации «Деловая женщина». Раскрыты цели и задачи проекта, актуальность, статус и суть достигнутых результатов.

Ключевые слова: Женское предпринимательство, цифровая экономика, цифровизация, бизнес, онлайн-платформа, гендерные различия, Интернет.

Kirish. Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu o'zgarishlarning eng muhim sabablaridan biri bu to'rtinchi sanoat inqilobi va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishidir. Ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilda dunyo aholisining 62,5 foizi, rivojlangan davlatlarning esa 90,3 foizi internetdan foydalanadi¹, Barcha sohalar va faoliyat turlari zamonaviy texnologiyalar asosida bosqichma-bosqich o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Shu jumladan, mamlakatimizdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektori ham raqamli iqtisodiyot sharoitida jadal tusda rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham avvalo aholi eng ko'p to'qnash kelayotgan sohalarni raqamlashtirish, odamlarning og'irini yengil qilish zarurligini ta'kidlandi².

Iqtisodiyotdagi transformatsiya jarayonlarida yangicha usulda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlari shakllanmoqda. Iqtisodchi olim S.Degrising fikricha, bu yangiliklarning quyidagi asosiy uch komponenti mavjud³:

a) internet va yuqori tezlikdagi tarmoqlarning rivojlanishi;

b) tijorat maqsadlarida yaratilgan ulkan miqyosdagi internet-platformalar natijasida shakllangan katta ma'lumotlar(big data);

c) istalgan vaqtda va istalgan joyda internetga kirish imkonini beruvchi zamonaviy mobil qurilmalar – mobil telefonlar, planshetlar va h.k.. Bugun siz 1975 yilda 5 million dollar turgan superkompyuter quvvatiga ega smartfonni 400 dollarga sotib olishingiz mumkin.

Ushbu uch yo'nalishning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirida so'nggi yillarda masofalar yaqinlashib chegaralar qisqardi, ya'ni ish joyi, dam olish maskani yoki uy degan qat'iy taqsimot yo'qolib bormoqda. Ayniqsa, ayollar tadbirkorligining rivoj topishiga raqamlashtirish ikki taraflama xissa qo'shadi. Birinchidan, uy ishlarida zarur bo'lgan zamonaviy texnologiyalar, yangi ixtirolar asosida xotin-qizlarning bo'sh vaqtlari ko'paymoqda, ikkinchidan esa internet tarmoqlari va online xizmatlar (ayollar uchun qulay bo'lgan moslashuvchan kun tartibi bilan ham) tadbirkorlik faoliyatini yuritishni osonlashtiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakat tadbirkor ayollar qatlamini kengayishini rag'batlantirish orqali milliy farovonligi va raqobatbardoshligiga sarmoya kiritishi mumkin. Hozirgi kunda tadbirkor ayollar dunyoda faol o'sishga yo'naltirilgan barcha tadbirkorlarning uchdan bir qismini tashkil qiladi⁴. Shuni ta'kidlash joizki, ayollar tadbirkorligi rivojlangan mamlakatlarga qaraganda rivojlanayotgan mamlakatlarda

¹ ITU World Telecommunication/ICT Indicators database. Key ICT indicators for developed and developing countries, the world and special regions (totals and penetration rates) URL: https://www.itu.int/en/ITU/Statistics/Documents/facts/ITU_regional_global_Key_ICT_indicator_aggregates_Nov_2020.xlsx

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 22-sentyabr kuni tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqi URL: <https://yuz.uz/uz/news/prezident-raqamliiqtisodiyotsiz-mamlakat-iqtisodiyotining-kelajagi-yoq>

³ Degryse C. Digitalisation of the economy and its impact on labour markets. Work-ingPaper. URL: <http://ssrn.com/abstract=2730550>.

⁴ GEM Report. Women's Entrepreneurship 2020/21: Thriving Through Crisis.

ko'proqdir⁵. Ushbu tadqiqotda biz tadbirkorlik faoliyatini yo'lga quymoqchi bo'lgan ayollar uchun biznes ko'nikmalar shakillantiruvchi, ularni kasbga yo'naltiruvchi, qayta tayyorlovchi va malakasini oshiruvchi "Anor" onlayin platformasining maqsad va vazifalarini tahlil qilishni maqsad qildik.

XXI asrda ko'pgina hukumatlar, shu jumladan O'zbekiston ham gender masalalariga e'tibor qaratib boshladi. Mamlakatda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi bir qancha dasturlar va imtiyozlar yo'lga qo'yilgan⁶. Biroq, raqamlashtirish jarayonlari ayolning tadbirkorlik faoliyatiga juda katta ta'sir etmayotganligini ularning an'anaviy faoliyatni afzal ko'rishidan ham bilib olish mumkin. Tadqiqotda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ayollarga tegishli bizneslar sonining ko'payishiga qimmatli hissa qo'shishi mumkin degan gipoteza ilgari surildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

O'tgan asrda tadbirkorlik bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar biznesda ayollar va erkaklar bir xil xususiyatga ega degan fikrni ilgari surgan, ammo bu qarash hozirgi kunda xato ekanligi isbotlangan⁷. 1970 yildan boshlab tadbirkorlikning gender jihatlariga e'tibor qaratilgan boshlandi. 1976 yilda Shvarts⁸ tomonidan ayollar tadbirkorligi haqidagi ilk ilmiy maqola nashr qilindi. Keyinchalik butun dunyoda ushbu mavzu bo'yicha ko'plab tahliliy ishlar va siyosiy chiqishlar qilindi. Avvaliga ilmiy ishlar tadbirkor ayol tushunchasiga⁹ yoki ularni erkak tadbirkorlar bilan solishtirishga¹⁰ qaratilgan bo'lsa, keyinchalik ayollarning tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga va muvaffaqiyatli yuritishiga ta'sir etuvchi omillar haqidagi tadqiqotlar ommalashdi¹¹. So'nggi tadqiqotlarda olimlar raqamli iqtisodiyotning ayollar biznesini boshlashiga ta'sirini ham tadqiq qila boshladilar¹².

G'arb adabiyotlarida tadbirkor ayol tushunchasi birinchi marta tijorat korxonasini yurituvchi, tashkil etuvchi va boshqaruvchi ayol sifatida tavsiflangan. Hozirda xotin-qizlar tadbirkorligi iqtisodiyotga katta ijobiy ta'sir ko'rsatishi chuqur anglab yetilayotgani bu sohaga jiddiy e'tibor qaratilishiga sabab bo'lmoqda. Ayollar tadbirkorligi ham shaxslar, ham jamoalar, shuningdek, mamlakatlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. A.Abritalining fikricha, ayollarning ish o'rinlari yaratish, iqtisodiy o'sish va boylik

⁵ Minniti, M., Allen, E. and Langowitz, N. (2006) The 2005 Global Entrepreneurship Monitor Special Topic Report: Women in Entrepreneurship. Center for Women Leadership, Babson College. Babson Park, MA.

⁶ O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi URL: <https://lex.uz/en/search/ext?okoz=6806>

⁷ Minniti, M. (2009) Gender issues in entrepreneurship. *Foundations and Trends in Entrepreneurship* 5(7-8): 497-621.

⁸ Schwartz, E. (1976). Entrepreneurship: A new female frontier. *Journal of Contemporary Business*, 5, 47-76

⁹ Birley, S., Moss, C. and Saunders, P. (1987) Do women entrepreneurs require different training? *American Journal of Small Business* 12(1): 27-35. Holmquist, C. and Sundin, E. (1988) Women as entrepreneurs in Sweden: Conclusions from a survey. *Frontiers of Entrepreneurship Research* 1988: 626-642.

¹⁰ Sexton, D.L. and Kent, C.A. (1981) Female executives and entrepreneurs: A preliminary comparison. In: K.H. Vesper (ed.) *Frontiers of Entrepreneurship Research*. Boston, MA: Babson College, pp. 40-55. Masters, R. and Meier, R. (1988) Sex differences and risk-taking propensity of entrepreneurs. *Journal of Small Business Management* 26(1): 31-35.

¹¹ Ahl, H., & Nelson, T. (2010). Moving forward: Institutional perspectives on gender and entrepreneurship. *International Journal of Gender and Entrepreneurship*, 2, 5-9.

Brush, C. G., de Bruin, A., & Welter, F. (2009). A gender-aware framework for women's entrepreneurship. *International Journal of Gender and Entrepreneurship*, 1, 8-24.

¹² Kamberidou, I. (2020). "Distinguished" women entrepreneurs in the digital economy and the multitasking whirlpool. *Journal of Innovation and Entrepreneurship*. <https://link.springer.com/article/10.1186/s13731-020-0114-y>

Kamberidou, I., & Pascall, N. (2020). The digital skills crisis: engendering technology-empowering women in cyberspace. *European Journal of Social Sciences Studies*, 4(6), 1-33. <https://doi.org/10.5281/zenodo.3558799> <https://oapub.org/soc/index.php/EJSSS/article/view/683>

to'plashda milliy iqtisodiyotga qo'shgan hissasi nihoyatda katta va hozirda hech kim bunga shubha qilmayapti. Bundan tashqari, ayollarning tadbirkorlik faolligi yuqori bo'lgan davlatlar moliyaviy inqirozlarga nisbatan himoyalani darajasi kuchliroq va iqtisodiy pasayish ehtimoli kamroqdir¹³. Raqamlashtirish tushunchasiga kelsak, biz uning elementlarining bir nechta xil tavsiflanishini kuzatdik¹⁴ Ushbu maqolada "Tadbirkor ayol" xalqaro ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "Anor" onlayin platformasining imkoniyatlarini o'rgandik.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan

Tahlil va natijalar

So'nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, oila institutini har tomonlama mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Bu boradagi davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida eng quyi bo'g'in – mahalla va xonadongacha kirib boradigan vertikal tizim yaratilayotganini alohida ta'kidlash lozim. Mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini yangi bosqichga ko'tarish, ularning bandligiga ko'maklashish maqsadida, maxsus komissiya tashkil etiladi¹⁵. Ushbu komissiya 2025 yilning mart oyiga qadar har bir hududda "favqulodda holat" rejimida ishlab, xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangicha yondashuvlar va tizim asosida tashkil qiladi.

Yo'qorigadi maxsus topshiriqlarning ijrosini ta'minlash maqsadida "Tadbirkor ayol" xalqaro ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi mamlakatimiz xotin-qizlarini tadbirkorlikka o'qitish bo'yicha onlayin platforma yaratdi. Sohadagi ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari hamda qonunchiligi o'xshash bo'lgan xorijiy mamlakatlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning huquqiy asoslari tahlil qilindi. Onlayin platformada "Tadbirkorlik asoslari", "Noldan biznes boshlash", "Marketing", "Kadrlar boshqaruvi", "Buxgalteriya va soliq", "Ijtimoiy tarmoqlarda biznesni boshqarish" o'quv kurslari joylashtirilgan. Mazkur tizim tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ayollar turmush darajasini oshirish, ayollar uchun yangi, barqaror daromad manbalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tizimning asosiy maqsadi ayollar tadbirkorlik harakatini yangi bosqichga olib chiqishdan iborat. Buning asosiy vositasi xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish imkonini beruvchi, tadbirkorlik sohasidagi bilim va ko'nikmalarini doimiy oshirishga qaratilgan ONLAYN platforma yaratildi.¹⁶

Loyiha doirasida:

¹³ Абриталина, А.С. Женское предпринимательство: социально-экономические мотивы и факторы: Диссертация кандидата социологических наук: 22.00.03. - Саратов, 2006. - 153 с

¹⁴ Camara, N., & Tuesta, D. (2017) DiGiX: The Digitization Index. 17/03 Working Paper.

²⁶ UNCTAD (2019a). Digital Economy Report 2019: Value Creation and Capture: Implications for Developing Countries. United Nations publication, Sales No. E.19.II. D.17. New York and Geneva.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoev Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan (2024y.6 mart)


¹⁶ Muradova X.M i.f.d.prof "MAMLAKATIMIZ XOTIN-QIZLARINI TADBIRKORLIKKA O'QITISH BO'YICHA ONLAYIN PLATFORMA YARATISH"

- ❖ Tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan xotin-qizlarda tadbirkorlik ko`nikmalarini shakllantirish, ularni kerakli kasb-hunarga yo`naltirish, o`qitish va qayta tayyorlash, malakasini oshirish uchun noyob onlayn platforma ishlab chiqildi.
- ❖ Tadbirkorlikning turli yo`nalishlarida xotin qizlar faoliyati samaradorligini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga qaratilgan o`quv uslubiy qo`llanmalar yaratildi.
- ❖ Tadbirkorlik faoliyatini yo`lga qo`ymoqchi bo`lgan ayollar uchun biznes ko`nikmalar shakllantiruvchi, ularni kasbga yo`naltiruvchi, qayta tayyorlovchi va malakasini oshiruvchi onlayn platforma tashkil etilishi ta`lim jarayonlarini masofaviy tashkil etish imkoniyatini beradi.

O`zbekiston Prezidenti tomonidan har yili 5000 nafar xotin qizlarni tadbirkorlikka bepul o`qitish, 15 000 nafar ayollarni ishga joylashtirish vazifasi qo`yildi. YAgona ONLAYN o`qitish tizimi yaratilsa har bir hududdan bir oyda o`rtacha 60 nafar ayollarni, mamlakat bo`yicha 840 nafar ayolni, bir yilda esa 11 760 nafar xotin qizlarni tadbirkorlik asoslariga bepul o`qitish imkoniyati paydo bo`ladi¹⁷

Loyiha «Tadbirkor ayol» xalqaro ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi tashabbusi bilan ilgari surilgan. Loyihada iqtisodiyot, huquq va ilmiy tadqiqotlar olimlari, Assotsiatsiyaning mas`ul etakchi xodimlari ishtirokida bajarildi. Assotsiatsiyaning mamlakat hududlarida 68 ta davlat ro`yxatidan o`tgan bo`limlari mavjud bo`lib, 200 nafardan ortiq biznes trener va mutaxassislari faoliyat yuritmoqdalar. Assotsiatsiya 30 yillik tarixga ega bo`lib, xotin qizlarga biznes ta`lim berish faoliyatiga ixtisoslashagn. O`tgan davrda mahalliy va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda ayollar iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan 100 lab loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ta`lim dasturlari barobarida biznes qilmoqchi bo`lgan ayollar uchun o`quv metodik qo`llanmalar ishlab chiqilib, ularga bepul tarqatib berildi. Natijada, 50,3 ming nafar xotin qizlar tadbirkorlik ko`nikmalariga ega bo`ldilar. Ularning 80 foizi ish bilan band bo`ldi. 43 ming nafarlari o`z tadbirkorlik faoliyatlarini yo`lga qo`yishga muvaffaq bo`ldilar. Muhimi, Assotsiatsiya xotin qizlarni biznes va tadbirkorlik asoslariga o`qitishga ixtisoslashgan.

¹⁷ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.03.2024 yildagi PQ-122-son Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo`lga quyish va rivojlantirishni qo`llab-quvvatlashga oid qo`shimcha chora tadbirlar to`g`risida.



Onlayin platformaning yaratish rejasi. 1-rasm.

Ilmiy bazani shakllantirish – tahliliy ma`ruzalar, o`quv – metodik qo`llanmalar bilan ta`minlash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, onlayn o`quv dasturlari orqali huquqiy va moliyaviy bilimlarini mustahkamlash

Mazkur tizim tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ayollar turmush darajasini oshirish, ayollar uchun yangi, barqaror daromad manbalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Loihaning ilmiy yangiligi shundaki ushbu mahsulot modulli, ko`p bosqichli o`quv tizimini yaratishni o`z ichiga olib, qishloqlarda va chekka hududlarda barqaror daromadga ega bo`lmagan, lekin tadbirkorlik bilan shug`ullanish istagida bo`lgan ayollarga mo`ljallangan. Har bir modul` tadbirkorlikning alohida bosqichiga bag`ishlanadi: tadbirkorlikni tartibga soluvchi qonunchilik, buxgalteriya hisobi, soliqqa tortish, bozor tahlili, marketing, mehnat qonunchiligi va boshqa yo`nalishlar.

Ta`lim va tadbirkorlik faoliyatini uyg`unlashtirgan tizim tufayli birinchi navbatda natija samaradorligiga erishiladi. (to`liq kursni tamomlagan ayollar tadbirkorlik faoliyatlarini imtiyozli moliyalashtirish bo`yicha davlat dasturlari imkoniyatlaridan foydalanadilar). Ta`lim dasturlari va modullarini raqamlashtirishga asoslangan texnologiyalarni joriy etish masofaviy ta`lim tizimi uchun qulay sharoit yaratadi. Kichik biznes bo`yicha uy sharoitida minimal ma`lumotga ega bo`lgandan so`ng, ayniqsa, qishloq joylarda va chekka hududlarda yashovchi tadbirkor ayollar soni ko`payadi. Statistika agentligining uy xo`jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma`lumotlariga asosan, 2023-yilning yanvar-dekabr holatiga ko`ra, 10 yosh va undan katta bo`lgan internetdan foydalanuvchi ayollar ulushi 87,3 % ni tashkil etdi. Ma`lumot uchun, bu ko`rsatkich: 2021-yilda – 72,6 %ni; 2022-yilda – 81,0 % ni tashkil etgan.

“Anor” onlayin platformasining xususiyatlari.

- ✚ Foydalanuvchilarning chegaralanmagan miqdori;
- ✚ Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, har qanday nuqtadan internet orqali ulanish imkoniyati;

- ✚ O`qitish o`qituvchisiz amalga oshiriladi – bu o`quv jarayonini osonlashtiradi va resurslarni iqtisod qiladi;
- ✚ Kurs materiallarni to`liq o`zlashtirib olingunga qadar qayta – qayta o`tish mumkin;
- ✚ Har bir kurs yakunida avtomat ravishda testdan o`tiladi;
- ✚ Bir tizimda barcha qo`shimcha materiallar (qonunlar, qo`llanmalar, havolalar);
- ✚ CHat orqali boshqa o`quvchilar va assotsiatsiya bilan muloqot;
- ✚ O`qiyotganlarni platforma orqali har qanday tadbir haqida xabardor qilish (seminarlar, yangi kurslar, yangi qonunlar, Assotsiatsiya va ayollar tadbirkorligi yangiliklari);
- ✚ Har bir kurs muvaffaqiyatli o`tilganda sertifikat berish.

Loiha doirasida ilmiy muammoning yechilishi

1. Jahon ilg'or tajribasidan kelib chiqib, xotin qizlarni tadbirkorlik ko`nikmalariga o`rgatish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun onlayn platforma yaratiladi. O`quv kurslarining har bosqichi va yo`nalishi bo`yicha ta`lim darajasini baholash uchun testlar to`plami ishlab chiqiladi. YAGona onlayn platforma yaratishning ilmiy va amaliy jihatlari o`rganildi.

2. Onlayn platforma ko`p modulli, bosqichma bosqich innovatsion o`quv dasturi bo`ladi. Tadbirkor ayollarni kerakli ma`lumotlar bilan ta`minlash maqsadida uslubiy va o`quv qo`llanmalar tayyorlash bilan bog`liq muammolar hal etildi.

3. Tadbirkor ayollar uchun elektron tadbirkorlik kursining asosiy yo`nalishlari (biznes, soliqlar, banklar, kreditlar, buxgalteriya hisobi, huquqiy hujjatlar) bo`yicha amaliy qo`llanmalar ishlab chiqildi.

4. Ish jarayonida xotin qizlar tadbirkorligi, tadbirkorlik to`g`risidagi qonun hujjatlari samaradorligi, mavjud muammo va kamchiliklar o`rganilib, tahlillar asosida dalillarga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

5. Tadbirkorlik faoliyatni tartibga soluvchi qonun hujjatlari, soliq va bojxona qonunchiligi, moliyaviy masalalarni tartibga soluvchi hujjatlar majmuini o`z ichiga olgan, doimiy yangilanib turuvchi ma`lumotlar bazasi yaratildi.

Loihaning hozirgi statusi

- Moodle DT bazasida individual dizayn bilan onlayn – platforma moslashtirilgan versiyasi ishlab chiqilgan
- Platforma kerakli ulanish tezligi (trafik) bilan Assotsiatsiyaning virtual serveriga joylashtirilgan
- Platformaga o`zbek va rus tillarida 6 ta, jami 12 ta interfaol onlayn kurslar joylashtirilgan
- Platforma kerakli materiallar, ya`ni tadbirkorlikka oid qonunchilik hujjatlari, o`quv qo`llanmalari, maqolalar, ma`ruzalar bilan to`ldirib borilmoqda

- Platformaga kiruvchilar uchun tizimdan foydalanish yo`riqnomasi ishlab chiqilgan va uni har bir foydalanuvchi erkin o`qishi mumkin
- Sertifikat shakllari ishlab chiqilgan
- Tez fursatda platformadadan foydalanish bo`yicha Assotsiatsiya nizomi ishlab chiqiladi
- Onlayn platformaning 2 nafar administratori o`qitildi va ular ish boshlashdi

Erishilgan natijalar:

- **Ilmiy bazani shakllantirish** – tahliliy ma`ruzalar, o`quv – metodik qo`llanmalar bilan ta`minlash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, onlayn o`quv dasturlari orqali huquqiy va moliyaviy bilimlarini mustahkamlash
- **Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish** – Pandemiya onlayn ishlash va onlayn o`qish tizimi qanchalik dolzarb, oqil va samarali jarayon ekanligini ko`rsatdi. Aksariyat rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bunday tizim o`z samarasini berib kelmoqda
- **Ijtimoiy – iqtisodiy ta`siri** – Onlayn platformaning yaratilishi tadbirkorlikni rivojlantirish va ta`lim sohasida muhim ijtimoiy ijobiy samara beradi. Biznes treninglar o`tkazish, kofe breyklar, tushlik, yo`l xarajatlari, biznes trenerlarga gonorarlar, bino ijarasi va boshqa tashkiliy ishlarga ketadigan xarajatlar tejab qolinadi. Xotin qizlar xonadon yumushlaridan ajralmagan holda tadbirkorlik asoslarini o`rganish imkoniyatiga ega bo`ladilar.
- **Tijoratlashtirish istiqbollari** – Loyiha natijalarini tijoratlashtirish istiqbollari dasturiy ta`minotni amalda tadbiq etish bilan bog`liq bo`lib, tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarni olish, o`z biznesini rivojlantirish maqsadidagi xotin-qizlarga ma`lum miqdorda mablag` to`lab masofaviy ta`lim olish imkonini beradi. Dasturiy ta`minotdan boshqa turdosh ta`lim muassasalari ham foydalanishlari mumkin.

Xulosa va takliflar

Kuzatishlar masofaviy ta`lim dasturlariga talab kattaligini ko`rsatmoqda. Aksar ayollarimizda ko`pincha uy ishlari, sohibalik vazifalari, ro`zg`or tashvishlaridan ortib oflayin tartibda o`quv kurslariga qatnab tadbirkorlik sirlarini o`rganishi qiyinroq kechmoqda. Qolaversa butun dunyo tajribasi masofaviy ta`lim dasturlarini naqadar dolzarbligini ko`rsatdi. Onlayin platformada joylashtirilgan kurslarni o`qib o`rganish natijasida ayollarimizda o`z shaxsiy biznesini boshlash istagi paydo bo`ladi.

O`z-o`zini band qilish orqali doimiy uzluksiz daromadga erishish shu bilan bir qatorda ular iqtisodiyotning faol a`zosiga aylanadi. Masofaviy elektron kurs yakunida tinglovchilardan test topshirish talab qilinadi, 80% dan yo`qori ball to`plaganlarga sertifikat beriladi. Onlayn platformaning kelajakdagi shakllari quyidagilarda o`z aksini topishi kerakligini taklif qilamiz:

- Videokurslar
- Videoma`ruzalar

- Uyinlar
- Vibinar yozuvlari
- Stimulyatorlar
- Trenajorlar
- Longridlar

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, hukumat ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni maqsad qiluvchi boshqa qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar bilan parallel ravishda raqamlashtirish jarayonlarini, jumladan internet tezligini oshirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirishi zarur. Qolaversa, biznesdagi ayollarga oid keng qamrovli ma'lumotlarni yuritilishi kelgusida tadqiqotchilarga O'zbekiston misolida sifatli ilmiy ishlanmalarni bajarishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.03.2024 yildagi PQ-122-son Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga quyish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.03.2022 yildagi 145-son Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 22-sentyabr kuni tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqi URL: <https://yuz.uz/uz/news/prezident-raqamli-iqtisodiyotsiz-mamlakat-iqtisodiyotining-kelajagi-yoq>

2. Degryse C. Digitalisation of the economy and its impact on labour markets. WorkingPaper. URL: <http://ssrn.com/abstract=2730550>.

3. Malik, P. (2017). Gendering digital entrepreneurship: from research to practice using a tensional lens. ProQuest Dissertations Publishing: Purdue University <http://docs.lib.purdue.edu/dissertations/AAI10266070/>

4. GEM Report. Women's Entrepreneurship 2020/21: Thriving Through Crisis.

5. Minniti, M., Allen, E. and Langowitz, N. (2006) The 2005 Global Entrepreneurship Monitor Special Topic Report: Women in Entrepreneurship. Center for Women Leadership, Babson College. Babson Park, MA.

6. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi URL: <https://lex.uz/en/search/ext?okoz=6806>

7. Minniti, M. (2009) Gender issues in entrepreneurship. Foundations and Trends in Entrepreneurship 5(7-8): 497-621.

8. Schwartz, E. (1976). Entrepreneurship: A new female frontier. Journal of Contemporary Business, 5, 47-76

9. Ahl, H., & Nelson, T. (2010). Moving forward: Institutional perspectives on gender and entrepreneurship. International Journal of Gender and Entrepreneurship, 2, 5-9.

10. Абриталина, А.С. Женское предпринимательство: социально-экономические мотивы и факторы: Диссертация кандидата социологических наук: 22.00.03. - Саратов, 2006. - 153 с
11. Gundry, L. K., Ben-Yoseph, M., & Posig, M. (2002). Contemporary perspectives on women's entrepreneurship: a review and strategic recommendations. *Journal of Enterprising Culture*, 10, 67–86
12. Brush, C. G., de Bruin, A., & Welter, F. (2009). A gender-aware framework for women's entrepreneurship. *International Journal of Gender and Entrepreneurship*, 1, 8–24.
13. CWBR – Center for Women's Business Research. (2004) Women Owned Businesses in 2004: Trends in the U.S. and 50 States. Washington D.C: Center for Women's Business Research.
14. Maria Minniti and Wim Naude. What Do We Know about the Patterns and Determinants of Female Entrepreneurship across Countries? *European Journal of Development Research* Vol. 22, 3, 277–293 www.palgrave-journals.com/ejdr/ *"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar"* (Economics and Innovative Technologies) *ilmiy elektron jurnali*
15. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi. Ayollar egalik qilayotgan firmalar ulushi. URL: <https://stat.uz/en/press-releases/17513-2022>
16. Verizon (2020). 2020 Data Breach Investigations Report. Available at: <https://enterprise.verizon.com/resources/reports/dbir/>.
17. ITU World Telecommunication/ICT Indicators database. Key ICT indicators for developed and developing countries, the world and special regions (totals and penetration rates)
18. Абдуллаев М. (2020). Рақамли иқтисодиёт - кадрлар тайёрлашнинг долзарб йўналишлари . *Экономика и инновационные технологии*, (1(2), 186–198.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

